



BUXORO SHAHRI URBANONIMLARI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Nurullayeva Nigina Nuriddin qizi

Buxoro davlat pedagogika institute 1- bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20620352>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahri urbanonimlarining shakllanishi, rivojlanishi hamda ularning o'ziga xos lisoniy va madaniy xususiyatlari haqida umumiy ma'lumotlar bayon etilgan. Tadqiqot davomida shahar ko'chalari, mahalla va maydonlari nomlarining etimologik asosi hamda ularning tarixiy topografiya bilan bog'liqligi tahlil qilingan. Shuningdek, Buxoro urbanonimiyasining tarixiy-madaniy merosni saqlash hamda milliy o'zlikni anglashdagi o'rni yoritib berilgan. Maqola tilshunoslik, onomastika va o'lkashunoslik sohasidagi mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Buxoro, urbanonim, toponimika, onomastika, guzar, ko'cha nomlari, lisoniy manzara, tarixiy xotira.

Abstract. This article provides general information on the formation, development, and specific linguistic and cultural characteristics of the urbanonyms (names of streets, squares, neighborhoods, and avenues) of the ancient and eternally young city of Bukhara. The study analyzes the etymological basis of the city's street, neighborhood, and square names, as well as their connection to historical topography. Furthermore, the role of Bukhara's urbanonymy in preserving historical and cultural heritage and shaping national identity is highlighted. The article is intended for specialists in linguistics, onomastics, regional studies, and a wide range of readers.

Keywords: Bukhara, urbanonym, toponymy, onomastics, guzar, street names, linguistic landscape, historical memory.

Аннотация. В данной статье представлены общие сведения о формировании, развитии, а также специфических лингвистических и культурных особенностях урбанонимов (названий улиц, площадей, махаллей и проспектов) древнего и вечно молодого города Бухары. В ходе исследования анализируются этимологическая основа названий городских улиц, кварталов и площадей, а также их связь с исторической топографией. Кроме того, освещается роль урбанонимии Бухары в сохранении историко-культурного наследия и формировании национального самосознания.

Ключевые слова: Бухара, урбаноним, топонимика, ономастика, гузар, названия улиц, лингвистическая картина, историческая память.

Urbanonimlar –shahar,qishloq,mahalla,ko'cha,joylar va boshqa hududiy toifalarni anglatadigan nomlar.Ular ma'lum bir joyning madaniyati,tarixi va





geografik xususiyatlarini aks ettiradi. Urbanonimlarni tahlil qilish orqali, biz hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, insonlar hayotidagi o'zgarishlarni va geografik istiqbollarni chuqurroq anglashimiz mumkin. Urbanonimlar – bu shahar yoki boshqa urbanizatsiya qilingan hududlarning nomlari bo'lib, ularning geografik, tarixiy va madaniy kontekstini aks ettiradi.

Urbanonimlar joyning ma'lum bir xususiyatlarini, tarixiy voqealarini yoki mahalliy aholining madaniy merosini ifodalaydi. Urbanonimlar ko'pincha mahalliy til va dialektlarning xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu joylarning madaniyati va tarixiy taraqqiyoti haqida ko'plab ma'lumotlarni beradi.

Buxoro shahrining urbanonimlari qadimiy davrlarga borib tarqaladi. Shahar hududida miloddan avvalgi asarlar, haykaltaroshlik va savdo yo'llari mavjud bo'lgan. Bunday joy nomlari o'ziga xos geografik va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi.

Buxoro shahri urbanonimlari uning qadimiy tarixi, geografik joylashuvi, etnik-madaniy qatlamlari, diniy ahamiyati va siyosiy o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nomlar "Buxoro"ning o'zi Zarafshon vodiysining mo'l – ko'l suvlari, "Ark" kabi joy nomlari qadimiy mudofaa inshootlari, "Xonaqa", "Madrasa" kabi nomlar esa diniy-ta'lim markazlari bo'lgani sababli yuzaga kelgan, ular ko'p asrlik rivojlanish davomida shakllangan, shahar hayotining turli bosqichlarini aks ettiradi.

Kelib chiqish tarixi va bosqichlari:

1. Qadimiy davr (Miloddan avvalgi VI asr va undan oldin)

Buxoro nomi Siyovush (Afrosiyobning kuyovi) bilan bog'liq, shahar dastlab "Siyovushgird" deb atalgan bo'lishi mumkin, keyinchalik "Buxoro" nomi shakllangan. Buxoro nomining o'zi qadimiy Eron tilidagi "Buxorak" (shahar, farovonlik) yoki "Buxoro" (g'arb, quyosh) kabi ma'nolardan kelib chiqqan, bu joyning mo'l – ko'l suvli, farovon hudud ekanligini ko'rsatadi.

2. Islomgacha va Islomiy davr (VII-IX asrlar)

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida hozir ham mavjud bo'lgan Ark qal'asi nomi qayd etilgan, bu nom shahar markazidagi qal'a (qala) ga tegishli. Shahar atrofidagi qishloqlar va hududlar nomlari ("Shahr", "Rabad" kabi) urbanizatsiya jarayoni bilan birga rivojlangan.

3. O'rta Osiyo Islom Markazi (IX-XII asrlar)

Bu

davrda Buxoro madrasalari, xonaqohlar, jome masjidlari bilan to'lib toshgan. Shahar ichida "Darvozalar" (Bog'i Maydon, Somoniy va boshqa) nomlari shahar devorlari va darvozalariga bog'liq, ular shahar hududining kengayishini





ko'rsatadi. "Toqi"lar (Toqi Sarrafon, Toqi Telpak Furushon) savdo majmualari nomlari savdo rivojlanishi bilan paydo bo'lgan.

4. Temuriylar va Xonlik davri (XIV-XIX asrlar)

Amir Temur davrida shahar rivojlanib, yangi nomlar (masalan, Navruzgoh) paydo bo'lgan. Xonlik poytaxti bo'lgan davrda "Xonaqoh" (Xonaqohi Sayyid Ata), "Madrasa" (Masjid-i Kalon, Mir-i Arab, Abdulazizxon madrasalari) kabi ta'lim va diniy inshootlar nomlari urbanonimlar ichida ustunlikka chiqqan.

Buxoro ko'p ismlarga ega ekanligini Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr aytib o'tadi va o'z kitobida Numijkat degan ismni keltiradi. Manbalarda Bumiskat, arab tilida "Madinat us-sufriya", ya'ni "Mis shahar" va yana boshqa bir joyda arab tilida "Madinat ut-tujjor", ya'ni "Savdogarlar shahri" deb yozilgan. Buxoro degan nom barcha nomlardan ko'ra mashhurroq bo'lgan.

Xulosa. Buxoroning har bir ko'chasi, mahallasi va maydoni nomi ortida kelajakni bog'lovchi ko'pri, o'ziga xos "toshga bitilgan tarix"dir. Ularni chuqur o'rganish va kelajak avlodga asl holicha yetkazish nafaqat tilshunoslik yoki tarix fani oldidagi, balki o'zligini anglagan har bir fuqaroning burchidir. Zero, qadimiy shahar ko'chalarini kezgan har bir kishi garchi devorlar sukut saqlasa-da, ularning nomlari orqali Buxoroning boy o'tmishidan so'zlovchi jonli tarixga guvoh bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
2. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978.
3. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlari tushunchali lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977.
4. O'rayeva D., Halimov T. Buxoro shahri urbanonimlarining tarixiy-etimologik xususiyatlari // "Ilmiy xabarnoma" jurnallari.
5. Saidov A. Buxoro toponimlarining tarixiy qatlamlari. – Buxoro, 2010.
6. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far al-Narshaxiy. Buxoro tarixi. (tarjimon: A. Rasulev). – Toshkent: Fan, 1991.

